


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ANALYSIS OF FREE COPULATIVE WORD COMBINATIONS IN “HAYRAT UL-ABROR” EPIC BY ALISHER NAVAII****Nadir Nuriddinov***PhD, Associate Professor**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***Shozoda Fatkhullayeva***Student**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** copulative, attributive, component, phrase, phrase, semantic, morphological, syntactic, phonetic, byte, model.

**Received:** 28.05.23**Accepted:** 30.05.23**Published:** 01.06.23

**Abstract:** This article analyzes free copulative phrases (FCO) in Alisher Navoi's epic "Ayrat ul-Abror". It turned out that all the EXBs collected from the epic consist of two components, of which words belonging to the group of nouns are more productive, and words from the group of verbs are less productive. There were no EXBs associated with the verbal group of pronouns and numerals. It turned out that the composition of the analyzed EKSB consists of combinations of Persian-Persian, Persian-Arabic, Arabic-Persian, Arabic-Arabic, Turkish-Turkish words, with most of them consisting of Persian-Persian words.

**ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA ERKIN KOPULYATIV SO‘Z BIRIKMALARINING TAHLILI****Nodir Nuriddinov***PhD, dotsent**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston***Shozoda Fatxullayeva***Talaba**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**


---

**Kalit soʻzlar:** kopulyativ, atributiv, komponent, soʻz birikmasi, soʻz turkumlari, semantik, morfologik, sintaktik, fonetik, bayt, model.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi erkin kopulyativ soʻz birikmalari (EKSB) tahlilga tortildi. Dostondan toʻplangan barcha EKSBlar ikki tarkibiy qismdan iborat ekanligi, ulardan ot soʻz turkumiga oid soʻzlar sermahsul va feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlar esa kammahsul ekani aniqlandi. Olmosh va son soʻz turkumiga oid EKSBlar uchramadi. Tahlilga tortilgan EKSBlarining tarkibi forscha/forscha, forscha/arabcha, arabcha/forscha, arabcha/arabcha, turkcha/turkcha soʻzlar birikuvidan iborat ekanligi va ularning katta qismini forscha/forscha soʻzlardan tuzilgani maʼlum boʻldi.

---

**АНАЛИЗ СВОБОДНЫХ СОПУТИТЕЛЬНЫХ СЛОВСОЧЕТИЙ В ЭПОСЕ  
“ХАЙРАТ УЛ-АБРОР” АЛИШЕРА НАВАИ**

**Надир Нуриддинов**

*PhD, доцент*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

**Шозода Фатхуллова**

*Студент*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** копулятивное, атрибутивное, компонент, словосочетание, словосочетание, семантическое, морфологическое, синтаксическое, фонетическое, байт, модель.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы свободные копулятивные словосочетания (СКО) в эпосе Алишера Навои «Айрат ул-Абдор». Выяснилось, что все ЭКСБ, собранные из эпоса, состоят из двух компонентов, из которых более продуктивны слова, принадлежащие к группе существительных, и менее продуктивны слова из группы глаголов. Отсутствовали ЭКСБ, связанные со словесной группой местоимений и числительных. Выяснилось, что состав проанализированных EKSB состоит из комбинаций персидско-персидских, персидско-арабских, арабско-персидских, арабско-арабских, турецко-турецких слов, причем большинство из них состоит из персидско-персидских слов.

---

## KIRISH

Hozirgi zamon tilshunosligida barcha adabiy janrlar va ogʻzaki nutqda bir soʻzning takrorlanishi va sinonimik soʻzlarning yonma-yon kelishi oʻziga xos badiiy-stilistik usul sifatida keng ishlatilmoqda. Kopulyativ birliklarning turli semantik tiplarini oʻz ichiga oluvchi soʻz qoʻllashning bu turi leksik parallelizmning turli koʻrinishlarini aks ettiradi. Kopulyativ birliklar bir boʻlakning boshqasiga tobe boʻlmay erkin sintaktik munosabatni va teng huquqli sintaktik elementlarni ifodalaydi. Boshqa turdagi soʻz birikmalaridan farqli ravishda kopulyativ soʻz birikmalarida bosh va ergash soʻzlar, yaʼni atributiv munosabat mavjud boʻlmaydi.

## ASOSIY QISM

O.S. Axmanovaga koʻra kopulyativ soʻz birikmalari komponentlarining miqdorida cheklov kuzatilmaydi. Xuddi shunday erkin kopulyativ soʻz birikmalari (EKSBd) ham ikki yoki undan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzlardan iborat sintaktik soʻz birikmalaridan tashkil topadi. EKSBda tarkibiy qismlar orasidagi biriktiruvchi bogʻlovchi odatda -o-, baʼzida holatlarda esa -va- deb talaffuz qilinadi.

EKSBning sintaktik modelini eronshunos olimlar turlicha talqin qilishgan: “soʻz+bogʻlovchi+soʻz...”. Bogʻlovchi element sifatida fors grammatik manbalarida **واو عطف** *vāv-e aʼtf* “bogʻlovchi vov” deb ataluvchi **و** va bogʻlovchisi ishtirok etadi. Eronlik dasturnavis M.J. Mashkur ham **حروف ربط** *horuf-e rabt* “bogʻlovchilar” bilan bir qatorda soʻzlarni bir-biriga bogʻlashga xizmat qiluvchi **واو عطف** *vāv-e aʼtf* “bogʻlovchi vov” haqida eslatib oʻtadi.

Eronshunos olim N. Nuriddinovga koʻra, soʻz birikmasining har bir komponenti fonetik mustaqillikka ega boʻlib, turgʻun birikmalarda boʻlgani kabi mustaqil urgʻu va ikkinchi komponentning kichik pauzadan soʻng talaffuz qilinishi kuzatiladi. Lekin nutq jarayonida intonatsion manzara oʻzgaradi: birinchi komponent urgʻuli boʻgʻini tarkibidagi unli tovushning talaffuzi qisqaradi va soʻngi komponentning oxirgi boʻgʻiniga bir bosh urgʻu tushayotgandek tasavvur hosil boʻladi. EKSB komponentlari asosan ot va sifat turkumiga oid soʻzlardir. Bu kabi soʻz birikmalari gap tuzishda qurilish materiali sifatida xizmat qiladi.

Darhaqiqat, ham klassik, ham zamonaviy adabiyotida, ham nazmiy, ham nasriy asarlarda ikki va undan ortiq komponentli erkin kopulyativ soʻz birikmalari (EKSB) kuzatiladi. Mazkur maqola buyuk davlat arbobi, mutafakkir Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi erkin kopulyativ soʻz birikmalarining tadqiqiga bagʻishlangan boʻlib, dostondan toʻplangan jami 45 ta EKSB tahlilga tortiladi.

EKSB ikki va undan ortiq tarkibiy qismning semantik yaqinlik, morfologik va sintaktik tenglik asosida birikishidan hosil boʻladi.

Tahlilga tortilgan dostonida to‘plangan barcha EKSBlarning ikki tarkibiy qismdan iborat ekani aniqlandi. Uch yoki undan ortiq komponentli EKSB uchramadi:

*Āšigā kim salsa qilib zīynat iš,*

*Zardak u šalḡam kibi altun -kumiš.* [Ḥayrat ul-abrār, 34/35]

Yuqoridagi baytda kelgan *altun-kumiš* EKSB ot so‘z turkumiga oid *altun* “oltin” va “*kumiš*” “kumush” so‘zlarining birikishidan tashkil topgan.

*Aḡa nišāt u saḡa andūh-u-ḡam.*

*Ul saḡa andaḡ ki, aḡa sen bu dam* [Ḥayrat ul-abrār, 26/46]

Baytda kelgan *andūh-u-ḡam* EKSBsi ot so‘z turkumiga oid bo‘lib *andūh* “g‘am-anduh” va *ḡam* “g‘am” so‘zlaridan tashkil topgan.

*Kišvar aḡā nūr - u -ṣafā xiṭṭasi,*

*Anši etib ḡamd - u -ṣanā xuṭbasi.* [Ḥayrat ul-abrār, 19/61]

Baytda kelgan *nūr-u-ṣafā* EKSBsi ot so‘z turkumiga oid bo‘lib, *nūr* “ravshanlik”, *ṣafā* “tiniqlik” so‘zlarining birikishidan tashkil topgan.

“Hayrat ul-abror” dostonida, shuningdek, “ot+ot” modelidagi quyidagi EKSBlar ham aniqlandi: *dard-u-ranġ* [36/92], *dur-u-gavhargā* [54/33], *dur-u-la’lī* [26/61], *ganġ-u-māl* [62/47], *guḡ-u-lāl* [19/81; 60/14], *ḡam - u -meḡnat* [62/49], *ḡam -ū-ḡuṣṣa* [32/116], *ḡarām-ū-ḡarīš* [52/45], *ḡirṣ-u-havā* [52/23], *ġahd-u-ġid* [52/69], *ġūd-u-saxāvat* [30/14; 30/101], *kavn-u-makān* [28/77; 62/71], *luṭf - u -karam* [6/21; 6/27; 60/80; 63/14], *mehr- u-vafā* [36/16; 37/23], *nāla-yu-afḡan* [26/76], *nūr-u -ṣafā* [19/61], *ranġ-u-’anā* [20/70; 21/10; 36/15], *ṣabr-u-sukūn* [2/19], *šāh-u-gadā* [13/19; 16/54; 21/32], *šuhūd-u-ḡuṣūr* [61/20], *’išq-u-muḡabbat* [57/13], *ṣubḡ-u-šām* [20/30; 50/60]

Shuningdek, tahlilimiz davomida ot so‘z turkumi bilan undov so‘zning birikishidan hosil bo‘lgan EKSB ham aniqlandi:

*Nēča uluḡ ersa ḡunah xirmanī,*

*Yelḡa berur āh-u-nadāmat anī.* [Ḥayrat ul-abrār, 60/78]

Yuqoridagi baytda kelgan *āh-u-nadāmat* EKSBsi *āh* “nola” va *nadāmat* “pushaymon” so‘zlarining birikishidan tashkil topgan.

Tahlillar davomida tarkibiy qismlari nafaqat ot so‘z turkumi, balki sifat, fe‘l va ravish so‘z turkumlariga oid so‘zlardan iborat EKSBlar ham aniqlandi:

#### “Sifat+sifat” modeli:

*Kiymak uḡun ul ṣanami šōx-u-ṣaḡ.* [Ḥayrat ul-abrār, 15/35]

*Menda xavāṭirdin olub yuz futūr.*

Yuqoridagi baytda keltirilgan *šōx-u-ṣaḡ* EKSB sifat so‘z turkumiga oid *šōx* “o‘ynoqi” va *ṣaḡ* “sho‘x” so‘zlarining birikishidan tashkil topgan.

*Ṭurfa bu kim, xatṭin aniḡ rōzgār*

“*Rāsti -yu -rusti*” etib āṣkāṛ. [Ḥayrat ul-abrār, 26/9; 40/43]

Baytda kelgan *rāsti-yu-rusti* EKSB *rāsti* “munosib”, *rusti* “mahkam” kabi sifatga oid soʻzlardan tashkil topgan.

**“Feʼl+feʼl” modeli:**

*Čun dedi tejrī ki, «kūlū -va -šrabū»,* [Ḥayrat ul-abrār, 30/33]

*Yānida dēdī ki, «va lā tusrifū».*

Yuqoridagi baytda kelgan *kūlū-va-šrabū* EKSB feʼl soʻz turkumiga oid boʻlib, arabcha *kūlū* “yeying” va *šrabū* “iching” feʼllarining birikishidan tashkil topgan.

**“Feʼl+ot” modeli:**

*Ĵānlari etib šayd ĵafāsī bilā,*

*Qāš ila kirpik oq - u -yāsī bilā.* [Ḥayrat ul-abrār, 54/69]

Baytda kelgan *oq-u-yāsī* EKSB *oq* “toʻkilmoq”, *yāsī* “koʻz yoshi” soʻzlaridan birinchi qismi feʼl ikkinchi qismi esa ot soʻz turkumiga oid soʻzlarning birikishidan tashkil topgan.

**“Ravish+ravish” modeli:**

*Āq u qarā uzra berib ištihār,*

*Muš k ila kāfūrini layl-u-nahār.* [Ḥayrat ul-abrār, 2/14; 54/23]

Yuqoridagi baytda kelgan *layl-u-nahār* EKSB *layl* “kecha” *nahār* “kunduz” soʻzlarining birikishidan tashkil topgan, ravish soʻz turkumiga oid soʻzlardir.

*Kim ki bu davrānda qilur rāstliq,*

*Yoqtur ištī gayri kam-ū-kāstliq.* [Ḥayrat ul-abrār, 40/56]

Bayda kelgan *kam-ū-kāstliq* EKSB ravish soʻz turkumiga oid boʻlib, *kam* “kam”, *kāstliq* soʻzidagi “*kāst*” forscha “kam, oz”, “-liq” esa turkiycha soʻz yasovchi qoʻshimchalarning birikishidan hosil boʻlgan.

Navoiy asarlarini yozishda faqatgina oʻzbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanib qolmagan, balki boshqa tillardan ham unumli foydalangan. Bu borada Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Oʻtkir Hoshimov quyidagilarni qayd etadi: “Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin oʻz asarlarida 21197 ta betakror soʻz ishlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin. Alisher Navoiy esa 26 ming 35 ta betakror soʻz ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, moʻgʻul va boshqa tillardagi soʻzlardan ham mahorat bilan foydalangan”.

Tahlilga tortilgan dostonidan tarkibi forscha/forscha, forscha/arabcha, arabcha/forscha, arabcha/arabcha turkcha/turkcha soʻzlar birikuvidan iborat quyidagi EKSBlar aniqlandi.

**Forscha/forscha soʻzlar birikuvidan iborat EKSB:**

*Sēni tilab har neča kordum šikanĵ,*

*Ganĵ tilab yetmadi ĵuz dard-u-ranĵ.* [Ḥayrat ul-abrār, 36/92]

Bu baytda *dard-u-ranj* EKSB “og‘riq va zahmat” ma’nosida talqin qilinadi.

*Sāqiy, alib kel qadaḥē yār esaṇ,*

*Mehr - u -vafā šartī bila bār esaṇ.* [Ḥayrat ul-abrār, 36/16; 37/23]

Yuqoridagi baytda *mehr - u -vafā* EKSB “muhabbat va sadoqat” ma’nosini ifoda etadi.

Dostonda tahlilga tortilgan EKSBning ko‘p qismi forsha so‘zlardan tashkil topgani aniqlandi: *āh-u-nadāmat* [60/78], *dard-u-ranj* [36/92], *dur-u-la’lī* [26/61], *ḡam-u -āzār* [42/7], *ḥirṣ-u-havā* [52/23], *kavn-u-makān* [28/77; 62/71], *mehr-u-vafā* [36/16; 37/23], *nāla-yu-afḡan* [26/76], *andūh - u -ḡam* [26/46], *ḡam - ū -ḡuṣṣa* [32/116], *ranj - u -’anā* [20/70; 21/10; 36/15;], *Rasti -yū -rusti* [26/9; 40/43], *šāh - u -gadā* [13/19; 16/54; 21/32], *šōx - u -šaṇ* [15/35], *šuhūd - u -ḥuṣūr* [61/20], *ṣubḥ-u-šām* [20/30; 50/60].

#### **Forscha/arabcha so‘zlar birikuvidan iborat EKSB:**

*Ilgida Qārūnča bolub ganj - u -māl,*

*Tapmaq erur xalq riṣāsīn maḥāl.* [Ḥayrat ul-abrār, 62/47]

Mazkur baytda *ganj - u -māl*, EKSB “boylik, mol dunyo” ma’nosida talqin qilinadi.

*Munča ḡam - u -meḥnat ila bāvuḡūd,*

*Munča taraddud bila guft - u -šunūd.* [Ḥayrat ul-abrār, 62/49]

Yuqoridagi baytda *ḡam - u -meḥnat* EKSB “tashvish va dard” ma’nosini ifoda etadi.

#### **Arabcha/forscha so‘zlar birikuvidan iborat EKSB:**

*Bir neča kun gardiši layl - u -nahār,*

*Otkariban navbati ḥusni bahār.* [Ḥayrat ul-abrār, 2/14; 54/23]

Bu baytda *layl - u -nahār* EKSB “tun va kun” ma’nosida talqin qilinadi.

#### **Arabcha/arabcha so‘zlar birikuvidan iborat EKSB:**

*Čun dedi tejrī ki, «kūlū -va -šrabū».* [Ḥayrat ul-abrār, 30/33]

*Yānida dēdī ki, «va lā tusrifū».*

Yuqoridagi baytda *kūlū-va-šrabū* EKSB “yeying va iching” ma’nosini ifoda etadi.

*Luṭf - u -karam ganjini netkuṇ durur?*

*Kimga ’aṭā yū karam etkuṇ durur?* [Ḥayrat ul-abrār, 6/21; 6/27; 60/80; 63/14]

Bu baytda adib *luṭf-u-karam* EKSB “mehribonlik va yaxshilik” ma’nosida talqin qilinadi.

Bundan tashqari quyidagi arabcha-arabcha so‘zlardan tashkil topgan EKSB aniqlandi:

*Ĵahd-u-Ĵid* [52/69], *ṣabr- u-sukūn* [2/19], *ḥamd-u-šanā* [19/61], *Ĵūd-u-saxāvat* [30/14; 30/101], *nūr - u -ṣafā* [19/61], *ḥarām - ū -ḥarīs* [52/45].

#### **Turkcha/turkcha so‘zlar birikuvidan iborat EKSB:**

*Ĵānlari etib ṣayd Ĵafāsī bilā,*

*Qāš ila kirpik oq - u -yāsī bilā.* [Ḥayrat ul-abrār, 54/69]

Yuqoridagi baytda *oq - u -yāsī* EKSB “to‘kilmoq va ko‘z yoshi” ma’nosini ifoda etadi.

## XULOSA

Yuqoridagi misollar tahlili yuzasidan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida EKSB tarkibining asosiy qismini bir grammatik qatorga oid, o‘zaro yaqin va bir semantik maydonga mansub so‘zlar tashkil qiladi. Tahlilga tortilgan misollarda tarkibiy qismlari ot+ot (37 ta), sifat+sifat (3 ta), fe’l+fe’l (1 ta), fe’l+ot (1 ta), ravish+ravish (3 ta) modellari asosida birikkan EKSBlar bo‘lib, ulardan eng sermahsuli ot+ot modeli ekanligi va 37 o‘rinda mazkur model asosida birikkan EKSBlar kelgani aniqlandi. To‘plangan misollar orqali EKSBlarni tarkibiy qisimlari bo‘yicha tahlil qilganimizda forscha/forscha (27 ta), forscha/arabcha (2 ta), arabcha/forscha (2 ta), arabcha/arabcha (12 ta), turkcha/turkcha (1 ta) so‘zlar birikuvidan iborat EKSBlar aniqlandi va eng sermahsuli forscha/forscha, kammahsuli esa forscha/arabcha, turkcha/turkcha so‘zlaridan tashkil topgan EKSBlar ekanligi aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Нуриддинов Н. Форс тилида копулятив қўшма сўз ва эркин копулятив сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари. Монография. – Т.: ТДШИ, 2020. – Б. 54.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966, – С. 208
3. Nishanbaeva A., Mirzakhmedova K., Nuriddinov N., Djafarov B. WORD FORMATION WITH PERSIAN VERBAL AFFIXOIDS IN THE POEM "KHAYRAT AL-ABRAR" BY ALI-SHIR NAVAI// Recent Scientific Investigation: сб. ст. по материалам XX International Multidisciplinary Conference Recent Scientific Investigation Международной научно-практической конференции «Recent Scientific Investigation». – № 5(20). – М., Изд. «Интернаука», 2021. – С. 149-154.
4. Nuriddinov, N., Mirzakhmedova, K., Nishanbaeva, A., & Djafarov, B. (2021). COPULATIVE COMPOUNDS MADE BY INTERFIX الف وصل. In *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ* (pp. 65-69).
5. Nodir Mr, N. (2020). Copulative compounds formed by prepositional interfixes in persian language. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 71.
6. Нуриддинов Н. Содиқ Ҳидоятнинг “سگ ولگرد” ҳикоясидаги эркин копулятив сўз бирикмаларининг структур-семантик таҳлили //Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. – Т., 2016. – Б. 23.
7. Персидско-русский словарь: В 2-х т. – М.: Русский язык, 1985. – 800 с., 848 с.
8. حسن انورى، حسن احمدى گيوى. دستور زبان فارسى. تهران، 1375.
9. محمود جواد مشكور. دستورنامه در صرف و نحو زبان پارسی. تهران، 1349.
10. <https://iqtidor.uz/uz/main/article/245>